



SOTSIOLINGVISTIKADA GENDER VARIATIVLIK

Hasanova Dilfuza Odilovna

Q'o'qon DU dotsenti,

Sobirjonova Muqaddasxon

Q'o'qon DU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola sotsiolingvistika doirasida gender variativlikning til vositalarida qanday aks etishini o'rganadi. O'zbek tilidagi ayollar va erkaklar nutqidagi fonetik, leksik farqlar badiiy asarlar misolida tahlil qilinadi. G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi va O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" asarlaridan keltirilgan misollar orqali gender xususiyatlarining til madaniyati va muloqot uslublariga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari gender tafovutlarining kommunikativ jarayonga ta'sirini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: gender, variativlik, nutq, jamiyat, omil, leksika, fonetika, grammatika, sotsiolingvistika.

Annotation: This article examines how gender variability is reflected in language tools within the framework of sociolinguistics. Phonetic and lexical differences in the speech of women and men in the Uzbek language are analyzed using the example of literary works. The influence of gender characteristics on language culture and communication styles is illustrated by examples from Gafur Ghulam's story "My Only Thief's Child" and Otkir Hoshimov's works "Lifetimes in Dreams". The results of the study show the impact of gender differences on the communicative process.

Key words: gender, variation, speech, society, factor, lexicon, phonetics, grammar, sociolinguistics.

Gender variativlik – til va nutqning jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy hamda psixologik omillarga ko'ra erkaklar va ayollar orasida qanday farqlanishini o'rganuvchi soha hisoblanadi. Sotsiolingvistika bu farqlarni turli lingvistik darajalarda, ya'ni fonetika, leksika, grammatikada tahlil qiladi. Gender variativlikning sotsiolingvistik tahlili tilning jamiyatdagi o'rnini, ijtimoiy rolini va kommunikativ jarayondagi o'ziga xosliklarini ochib beradi. Ushbu maqola gender variativlikning turli darajalarda qanday namoyon bo'lishi va sotsiolingvistik jihatdan qanday talqin etilishini o'rganadi.

1. Gender variativlikning nazariy asoslari

Gender tafovutlari asosan ijtimoiy rollar, madaniy me'yorlar va psixologik xususiyatlar bilan bog'liq. Sotsiolingvistik tadqiqotlarda ayollar va erkaklar nutqida bir qator farqlar mavjudligi aniqlangan. Masalan, ayollar muloqotda ko'proq hamdardlik va tushunishga urg'u berishsa, erkaklar ko'proq maqsadga yo'naltirilgan, qisqa va aniq gaplardan foydalanadilar.

2. Leksik darajada gender farqlari



Ayollar nutqida yumshoq, muloyim va ijtimoiy jihatdan maqbul soʻzlardan koʻproq foydalaniladi. Misol uchun, "iltimos", "rahmat", "kechirasiz" kabi muloyim ifodalar ustunlik qiladi.

Erkaklar esa qisqa, aniq va maqsadga yoʻnaltirilgan leksik birliklarni afzal koʻradilar. "Qilamiz", "boshlaymiz", "tugatamiz" kabi amaliy gaplar koʻp ishlatiladi.

Badiiy asarlar misolida ham bu holat yaqqol koʻzga tashlanadi. Masalan, Gʻafur Gʻulomning "Mening oʻgʻrigina bolam" hikoyasida keksa ayollar nutqiga xos ifodalar keltiriladi:

1. "Oʻgʻrigina bolam, hoy oʻgʻrigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning koʻyida tomga chiqqan koʻrinasan." — Bu gapda "oʻgʻrigina bolam" ifodasi yumshoqlik va mehrni aks ettiradi.

2. "Huv, xudoyo urushi boshiga yetsin, qiyomat - qoyil degani shudir-da a, oʻgʻrigina bolam." — Bu misolda duo va laʼnat birgalikda yumshoq ohangda ifodalanadi.

3. "Voy oʻlay, qutlugʻ uydan quruq ketasanmi, bolam?" — Onalik mehri va xavotir birgalikda namoyon boʻlgan.

Erkaklar nutqiga oid misollar esa Oʻtkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" asarida uchraydi:

1. "Ogʻzingga qarab gapir, bola! ... Umring turmasa chirydi, axmoq." — Erkaklar nutqida qatʼiylilik va keskin ifoda yaqqol seziladi.

2. "Joʻjaxoʻrozey! Qoʻyib bersa meni soʻroq qilmoqchi! Meni-ya!" — Bu gapda kinoya va qattiq ohang namoyon boʻlgan.

3. Fonetik oʻziga xosliklar

Oʻzbek tilida ayollar nutqida unli fonemalarni choʻzib talaffuz qilish (k-a-a-a-tta, uz-o-o-o-g, bal-a-a-a-nd) hamda undosh fonemalarni ikkilantirish (ma-z-z-za, esh-sh-shak, bash-sh-shara) kabi fonetik hodisalar koʻp uchraydi. Erkaklar nutqida esa bunday holatlar ancha kam kuzatiladi. Shuningdek, ayollar nutqida mantiq urgʻusi juda faol qoʻllanadi, pauza esa erkaklar nutqiga nisbatan juda qisqa boʻladi.

Xulosa:

Gender variativlik sotsiolingvistikaning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib, erkaklar va ayollar nutqi orasidagi farqlarni lingvistik darajada oʻrganadi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, leksik, fonetik darajalarda gender tafovutlari nafaqat ijtimoiy qarashlar, balki madaniy qadriyatlar va anʼanaviy rollar bilan ham chambarchas bogʻliq. Maqolada Gʻafur Gʻulom va Oʻtkir Hoshimov asarlaridan olingan misollar orqali bu farqlar aniq ifodalandi. Shuningdek, ayollar va erkaklar nutqining fonetik oʻziga xosliklari ham tahlil qilindi. Umuman olganda, gender variativlik til vositasida jamiyatdagi ijtimoiy meʼyorlar va kutilmalarni aks ettiradi, bu esa tilni yanada boyitib, uni muloqot jarayonida qiziqarli va rang-barang qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. -М., 2001.
2. Словарь социоллингвистических терминов. Отв. ред.: В.Ю. Михальченко-М., 2006.
3. Эрвин-Трипп С. М. Язык. Тема. Chymarers. Ananus
взаимодействия // Новое в лингвистике. Вып. VII. Социоллингвистика. -М., 1975.
4. Hymes D. On Communicative Competence. Original paper. 1971.